YASHIL MOLIYALASHTIRISH VA KORPORATIV EKOLOGIK JAVOBGARLIK: O'ZBEKISTONDAGI MOLIYAVIY INSTITUTLAR TAJRIBASI

Zulayho Zarfullayeva
O'zJOKU magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.15269343

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekistondagi moliyaviy institutlar tomonidan amalga oshirilayotgan yashil moliyalashtirish va korporativ ekologik javobgarlik (KEJ) strategiyalarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda yashil moliyalashtirishning iqtisodiy va ekologik samaradorligi, shuningdek, bu jarayonning xalqaro KEJ tamoyillariga mosligi o'rganilgan. Tadqiqot doirasida sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo'llanilib, O'zbekistondagi moliyaviy institutlarning rasmiy hisobotlari va GEFF dasturi ma'lumotlari tahlil qilingan. Natijalar moliyaviy institutlarning yashil iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni, amalga oshirilgan loyihalarning ekologik samarasi va kelajakda KEJni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ish yashil moliyalashtirish sohasidagi sa'y-harakatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadi.*

Kalit so'zlar: yashil moliyalashtirish, korporativ ekologik javobgarlik (KEJ), moliyaviy institutlar, ekologik barqarorlik, GEFF, yashil iqtisodiyot, O'zsanoatqurilishbank, xalqaro tamoyillar, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу стратегий зеленого финансирования и корпоративной экологической ответственности (КЭО), реализуемых финансовыми институтами Узбекистана. В исследовании изучены экономическая и экологическая эффективность зеленого финансирования, а также соответствие этого процесса международным принципам КЭО. В рамках исследования применены методы качественного и количественного анализа, проанализированы официальные отчеты финансовых институтов Узбекистана и данные программы GEFF. Результаты включают роль финансовых институтов в переходе к зеленой экономике, экологическую эффективность реализованных проектов и рекомендации по усилению КЭО в будущем. Данное исследование способствует развитию инициатив в сфере зеленого финансирования.*

Ключевые слова: *зелёное финансирование, корпоративная экологическая ответственность (КЭО), финансовые институты, экологическая устойчивость, GEFF, зелёная экономика, Узпромстройбанк, международные принципы, экономическая эффективность.*

Abstact: *This article analyzes the green financing and corporate environmental responsibility (CER) strategies implemented by financial institutions in Uzbekistan. The study examines the economic and environmental efficiency of green financing, as well as its compliance with international CER principles. Qualitative and quantitative analysis methods were applied, and official reports of financial institutions in Uzbekistan, along with GEFF program data, were analyzed. The findings highlight the role of financial institutions in transitioning to a green economy, the environmental impact of implemented projects, and recommendations for*

strengthening CER in the future. This study contributes to the development of green financing initiatives.

Keywords: *green financing, corporate environmental responsibility (CER), financial institutions, environmental sustainability, GEFF, green economy, "Uzpromstroybank", international principles, economic efficiency.*

Kirish. Yashil moliyalashtirish va korporativ ekologik javobgarlik so‘nggi yillarda tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhit muammolari global miqyosda ham, mintaqaviy miqyosda ham barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. O‘zbekiston ham rivojlanayotgan mamlakat sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yashil moliyalashtirish va korporativ ekologik javobgarlikni joriy etish bo‘yicha ildam qadamlar qo‘yayotir.

Yashil moliyalashtirish va yashil moliyaviy vositalar haqida to‘liq tushuncha beradigan yagona kelishilgan ta’rif haligacha shakllantirilimagan. Sababi, bu atama yaqin yillardagi ekologik xavfning ortishi bilan qiyoslanib, “Yashil” atamasi qo‘shiladigan sohalarni kengayishiga olib keldi.

Yashil moliyani ikki nuqtai nazardan ko‘rish mumkin. Birinchidan, yashil moliya atrof-muhitga yetkaziluvchi zararni, ayniqsa, iqlim o‘zgarishining iqtisodiy tizim va insoniyat jamiyatiga ta’sirini yumshatishda rol o‘ynashi mumkin. Ikkinchidan, yashil o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mablag‘ sifatida rol o‘ynashi mumkin. Yashil moliyalashtirish ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni birlashtirgan yangi paradigmasi bo‘lganligi sababli, ushbu g‘oyani ilgari surish uchun iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan moliyalashtirish zaruriyati tug‘iladi[1].

Korporativ ekologik javobgarlik (KEJ) esa bizneslarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror ishlash majburiyatidir. Bu ishlab chiqarish, mahsulot dizayni va marketing strategiyalarida atrof-muhitga ta’sirni hisobga olishni talab qiladi. KEJning foydalari orasida brend imidjining yaxshilanishi, xarajatlarni tejash, xodimlarning faolligi, ekologik qonunbuzarlik xavfini kamaytirish va yangi “yashil” bozorga kirish imkoniyati bor[2]. Kompaniyalar ekologik zararlarni kamaytirish uchun uglerod chiqindilarini kamaytirish, resurslarni tejash va barqaror biznes amaliyotlarini joriy etishlari lozim. O‘zbekistonda moliyaviy institutlar, jumladan, banklar ham yashil moliyalashtirishni rivojlantirish va korporativ ekologik javobgarlikni rag‘batlantirish bo‘yicha yangi imkoniyatlarni o‘rganmoqda.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tish, yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha bir qator choralar ko‘rilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Milliy yashil iqtisodiyot taksanomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 561-son Qaroriga muvofiq 2024-yil 1-oktabrga qadar “yashil” obligatsiyalar va kreditlar, shuningdek, boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan “yashil” turdagi loyihalarni tasniflash tajriba tariqasida Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi orqali amalga oshirilishi hamda davlat moliyaviy ko‘magidan (subsidiyalar, grantlar, kredit liniyalari, kafolatlar va boshqalardan) foydalangan barcha tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, xususiy va davlat

[1] Financial strategy to accelerate green growth : site. URL: https://www.adb.org/sites/default/files/publication/452656/adbi-wp866.pdf (date access: 20.03.2021).
[2] https://vitality.io/what-is-corporate-environmental-responsibility/amp/

ishtirokidagi xo‘jalik birlashmalarining investitsiyaviy xarajatlari Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi asosida tasniflanadi hamda ular tomonidan mas’ul respublika ijro etuvchi hokimiyat organiga ma’lumotlar taqdim etish tartibi joriy etilishi belgilangan.

Ushbu tadqiqotda yashil moliyalashtirish va korporativ ekologik javobgarlik masalalari O‘zbekiston moliyaviy institutlari tajribasi asosida o‘rganilgan va bu jarayonda banklar asosiy vazifani bajaradi. Chunki, banklar ekologik standartlarga mos loyihalarni moliyalashtirish orqali korxonalarning ekologik javobgarligini oshirishga hissa qo‘shadi. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini samarali boshqarish kabi loyihalarga mablag‘ ajratadi. Yashil obligatsiyalar chiqarish orqali esa barqaror moliyaviy tizim yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular investorlarga ekologik mezonlarga asoslangan moliyaviy mahsulotlarni taklif etish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtiradi.

Yurtimizda bir nechta banklar yashil moliyalashtirish yo‘nalishida faoliyatini yo‘lga qo‘ygan, jumladan,

• **Kapitalbank**: “Yashil Makon” milliy ekologik loyihasini qo‘llab-quvvatlab, 2024-yilda 40 mingdan ortiq daraxt ekish va havo sifatini nazorat qiluvchi datchiklar o‘rnatish kabi tadbirlarni amalga oshirdi[3].

• **Trastbank**: Jismoniy va yuridik shaxslar uchun “Yashil moliyalashtirish” iste’mol kreditini taklif etadi. Bu kreditlar quyosh panellari va energiya tejamkor uskunalarni sotib olish va o‘rnatish uchun mo‘ljallangan[4].

• **O‘zsanoatqurilishbank**: Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etib, yashil loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda. Bank Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining “Yashil moliyalashtirish yo‘nalishidagi eng yaxshi loyiha” sovriniga sazovor bo‘lgan.[5]

Yashil moliyalashtirishning xalqaro e’tirof, investitsiyalar va strategic yondashuv bo‘yicha baholaydigan bo‘lsak, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB eng ilg‘orlaridan biri hisoblanadi. Chunki SQB Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Bankining (YTTB) “Yashil moliyalashtirish yo‘nalishidagi eng yaxshi loyiha” sovrinini qo‘lga kiritgan. Bu uning ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda yuqori darajada faol ekanini ko‘rsatadi. Bank xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilgan holda yashil obligatsiyalar chiqarish va ekologik loyihalarga sarmoya kiritishda yetakchilik qilmoqda. SQB faqat yashil kreditlar emas, balki butun boshqaruv tizimiga ekologik mezonlarni joriy etish bilan ham shug‘ullanmoqda. Bu ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ Boshqaruv) tamoyillariga asoslangan.

O‘zbekiston tarixida birinchi bo‘lib “O‘zsanoatqurilishbank” ATB 2023-yil avgust oyida qiymati 100 mln. AQSH dollari miqdoridagi “yashil” yevroobligatsiyalarni xalqaro bozorda joylashtirishga muvaffaq

- Bank 2022-2023 yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh, shamol energiyasi) loyihalariga jami 50 million AQSh dollaridan ortiq mablag‘ ajratgan

[3] https://kapitalbank.uz/uz/press_center/news/kapitalbank-mamlakat-ekologiyasini-yaxshilashga-qaratilgan-loyihalarni-qo-llab-quvvatlaydi/
[4] https://trustbank.uz/uz/press_center/news/trastbank-jismoniy-va-yuridik-shaxslar-uchun-yashil-moliyalashtirish-iste-mol-kreditini-taklif-etadi/
[5] https://daryo.uz/2022/05/13/ozsanoatqurilishbank-ikkinchi-marotaba-yettbning-yashil-moliyalashtirish-yonalishidagi-eng-yaxshi-loyiha-sovriniga-erishdi

(Sanoatqurilishbank, 2023). Loyihalar natijasida 10 ta yangi quyosh elektrostansiyasi qurilgan, bu yiliga 20 ming tonna CO2 chiqindisini kamaytirishga yordam bergan (Energetika vazirligi, 2023).

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sanoatqurilishbank yashil moliyalashtirishni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston bank-moliya tizimidagi boshqa yirik tijorat banklari bilan solishtirganda nisbatan yuqori bo‘lsada, biroq, xalqaro standartlar asosida taqqoslanganda, bankning yashil loyihalarga ajratgan mablag‘lari hali ham kam (Jahon banki, 2023).

2. Korporativ ekologik javobgarlik dasturlari

Sanoatqurilishbankning ekologik javobgarlik dasturlari bo‘yicha quyidagi natijalar qayd etilgan:

- Bank o‘zining korporativ ekologik siyosatini ishlab chiqib, 2025 yilgacha karbon neytral bankka aylanishni maqsad qilib qo‘ygan (Sanoatqurilishbank, 2023).

- Bank tomonidan ekologik mas’uliyatni oshirish yuzasidan o‘quv dasturlarining tashkil etilishi natijasida xodimlarning atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha xabardorligi oshirilgan. Bu dasturlar bankning ekologik barqarorlikka bo‘lgan sodiqligini ifodalaydi, ammo, dasturlarning samaradorligini baholash uchun qo‘shimcha monitoring va hisobotlar talab etiladi .

3. Yashil moliyalashtirishning qiyinchiliklari

Tadqiqot jarayonida Sanoatqurilishbankning yashil moliyalashtirish sohasida duch kelgan qiyinchiliklari aniqlandi:

- Yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli darajada xususiy investorlar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik yo‘q (Markaziy Bank, 2023).

- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qonuniy bazaning yetarli emasligi yashil loyihalarni amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda. Bu qiyinchiliklar bankning yashil moliyalashtirish sohasidagi faoliyatini cheklab qo‘ygan. Biroq, xalqaro tajriba va davlatning qo‘llab-quvvatlovchi dasturlari orqali bu muammolar bartaraf etilishi mumkin.

4. Xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlil

Sanoatqurilishbankning yashil moliyalashtirishdagi tajribasi xalqaro miqyosda yetakchi moliyaviy institutlar (masalan, Yevropa Yashil Banki) bilan solishtirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sanoatqurilishbank hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, yashil loyihalarga ajratilgan mablag‘lar va ularning atrof-muhitga ta’siri jihatidan xalqaro standartlardan ortda qolmoqda (Jahon banki, 2023).

• Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) 2023 yilda 36 milliard yevrodan ortiq mablag‘ni yashil loyihalar uchun ajratgan bo‘lib, bu umumiy sarmoyaning 58% ini tashkil qiladi (ETTB, 2023).

• Jahon banki esa 2022-2023 yillarda barqaror rivojlanish loyihalariga qariyb 31 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritgan (Jahon banki, 2023).

• Sanoatqurilishbank esa 2022-2023 yillarda atigi 50 million AQSh dollari miqdorida yashil moliyalashtirish ajratgan bo‘lib, bu xalqaro moliyaviy institutlar bilan solishtirganda ancha kichik ko‘rsatkichdir.

Hozirgi kunda xalqaro moliyaviy institutlar yashil obligatsiyalarni faol ilgari surib, ekologik barqaror loyihalarga katta miqdorda mablag‘ ajratilyapti. Masalan, Xitoy Xalq Banki tomonidan 2023 yilda chiqarilgan yashil obligatsiyalarning umumiy qiymati 150 milliard AQSh dollariga yetdi (Xitoy Xalq Banki (PBoC). 2023). Sanoatqurilishbank tomonidan hali yashil obligatsiyalar chiqarish boshlanmagan va bu moliyaviy bozor orqali qo‘shimcha resurslarni jalb

qilish imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, yashil obligatsiyalar orqali mablag‘ jalb qilish ekologik loyihalarni barqaror rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Shu bois O‘zbekiston bank sektori, xususan, Sanoatqurilishbank yashil obligatsiyalar chiqarish va xalqaro moliyaviy bozor bilan integratsiyani kuchaytirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqishi zarur.

Yashil kreditlash va imtiyozli moliyalashtirish tomonidan solishtirilganda ham Sanoatqurilishbank asosiy kreditlarini yirik loyihalarga ajratmoqda, bu esa kichik biznesning ekologik barqarorlikka o‘tishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bunda O‘zbekiston bank sektorida yashil moliyalashtirish hajmini oshirish va xalqaro moliyaviy institutlarning tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Biz izlanishlarimiz davomida ma’lumotlarni to‘liq holda o‘quvchi auditoriyasiga yetkazishda bir qancha cheklovlarga uchradik, ya’ni:

- Yashil moliyalashtirish bo‘yicha O‘zbekistonda to‘liq statistik ma’lumotlar yetarli emas.

- Moliyaviy institutlarning shu qatorida SQBning ekologik dasturlari va hisobotlari ochiq emas, bu esa ma’lumotlarni to‘plashda qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Tadqiqot natijasiga ko‘ra, Sanoatqurilishbankning yashil moliyalashtirish va korporativ ekologik javobgarlik sohasidagi faoliyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni taqdim etamiz:

- Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

-Yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarini joriy etish;

- Ekologik hisobotlarning shaffofligini oshirish va monitoringni yaxshilash.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va ekologik muammolarni hal qilishda yashil moliyalashtirish va korporativ ekologik javobgarlik (KEJ) muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatdagi moliyaviy institutlar barqaror rivojlanish tamoyillarini o‘z faoliyatiga joriy qilishni boshlagan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda hali ko‘plab imkoniyatlar mavjud.

Shuningdek, OAV bilan faol ish olib borish moliyaviy institutlarning ekologik tashabbuslarini aholiga yetkazish, ularni ekologik mas’uliyatga jalb qilish, yashil moliyalashtirishning afzalliklari haqida xabardorligini oshirish bo‘yicha ko‘zlangan natijaga yetishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN INTERNET MANBALARI:

1. https://www.adb.org/sites/default/files/publication/452656/adbi-wp866.pdf
https://vitality.io/what-is-corporate-environmental-responsibility/amp/
2. https://kapitalbank.uz/uz/press_center/news/kapitalbank-mamlakat-ekologiyasini-yaxshilashga-qaratilgan-loyihalarni-qo-llab-quvvatlaydi/
3. https://trustbank.uz/uz/press_center/news/trastbank-jismoniy-va-yuridik-shaxslar-uchun-yashil-moliyalashtirish-iste-mol-kreditini-taklif-etadi/
4. https://daryo.uz/2022/05/13/ozsanoatqurilishbank-ikkinchi-marotaba-yettbning-yashil-moliyalashtirish-yonalishidagi-eng-yaxshi-loyiha-sovriniga-erishdi